



## DUDUQ BOLALARGA LOGOPEDIK YORDAM

Qo'chqorova Saodat Baxtiyarovna

*Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, 101-sonli Alohida Ta'limga Ehtiyojlari Bo'lgan Bolalar Uchun Ixtisoslashtirilgan maktab internatining yuqori sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Duduqlanish muammosini nutq buzulishlari haqidagi ta'limotning rivojlanishi tarixida eng qadimiylaridan biri hisoblanadi. Uning mohiyatini turlicha talqin qilish fanning rivojlanishi va mualliflarning nutq buzulishlariga qanday nuqtai nazardan yondashganliklari darajasi bilan bog'liqdir. Qadimgi davrlarda duduqlanishni ko'proq bosh miyada namlikning to'planib qolishi (Gippokrat) yoki artikulyatsion apparat qismlarining o'zaro noto'g'ri munosabati (Aristolel) bilan bog'liq holdagi kasallik deb qarashgan. Duduqlanish paytida nutq apparatining markaziy yoki periferik (sirtqi) bo'limlarida buzilish bo'lishi mumkinligini Galen, Sels va Ibn Sino e'tirof etdilar.*

**Kalit so'zlar:** *duduqlanish, korreksiya, kompensatsiya, artikulyatsiya, kompleks*

Har tomonlama rivojlangan barkamol inson shaxsini shakllantirish davrimizning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, iste'dodi, mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham bilimdon, keng dunyoqarashga ega barkamol va ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalab yetishtirish vazifasi, davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalish darajasiga ko'tarilgan. Davlatimizning qator konun va qarorlarida jamiyatimizning bo'lagi bo'lgan alohida yordamga muxtoj bolalarni ijtimoiy qo'llash ularga ta'lim-tarbiya berish, kasb xunarga o'rgatish sog'lom bolalar qatoridan o'zini olib o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ko'rsata olishga ma'naviy kamol toptirishga asos soluvchi choratadbirlar alohida e'tirof etilgan. Jismoniy va ruxiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llabquvvatlash ta'lim tarbiya tizimi va mazmuni davr talabi darajasida takomillashtirish ularni kasb-hunarga o'rgatish, sog'lom jamiyatda integrallash masalasiga davlatimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Alohida ehtiyojli bolalari ilk yoshdan ta'limga tayyorlash psixologik-tibbiy pedagogik yordamlarni kompleks yo'naltirilgan holda olib borish masalalariga ko'proq e'tibor berilmoqda. Bola nutqidagi kamchiliklar o'zgaralar nutqini tushinishdagi qiyinchilik ularni atrofdegilar bilan muloqatda bo'lishi o'z tengqurlariga qo'shilib ketishini qiyinlashtiradi. Nutq tafakkur ko'ra olish bo'lganligi sababli bola ulg'aygan sari atrof muxitdagi tasavvurlari shakllanadi va uni aks ettirish so'z lug'ati orqali takomillashib boradi. Nutqning rivojlanishda ta'lim-tarbiya ijtimoiy hamda biologik omillarning ta'siri ham kattadir.

Duduqlanish nutq nuqsonida nutq sur'ati, maromi va ravonligi buzilishi bilan ta'riflanadi. Bunda nutqning kommunikativ funksiyasi izdan chiqadi, ya'ni aloqa vositasi bo'lmay qoladi. Duduqlanishda asosan nutq apparati muskullarining ravon ishlay olmasligi paylar tolalarning tortishib qolishi sabab bo'ladi. Duduqlangan bolalarda xulq atvorida ham umumiy holatida ham ma'lum o'zgarishlar kuzatiladi. Arzimagan narsalardan xafa bo'lish, injiqlik, qo'rqish alomatlari paydo bo'ladi. Bunday ruhiy hodisalar duduqlanishni kuchaytiradi. Ba'zi bolalarning kamgap bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.



Duduqlanish - nutq buzilishlarining murakkab va ko'p uchraydigan turlaridan biridir. Bu nutq kamchiligida nutq a'zolari muskullarining tortishishi natijasida nutqning sur'at va ohangi buziladi, kommunikativ aloqa vositasi izdan chiqadi. Nutq a'zolari muskullarining ravon ishlay olmasligi, paylarni, muskul tolalarining tortishib qolishi duduqlanishga sabab bo'ladi. Xorijiy va mamlakatimiz olimlarning ta'kidlashicha, dunyo bolalarining 2 % ida tutilib gapirish nuqsoni kuzatiladi. Buyuk rus psixiatri I.A.Sikorskiy duduqlanishni —bolalar kasalligi deb atagan edi, chunki bu kamchilik 2 yosh bilan 5 yosh orasidagi bolalarda nisbatan ko'proq uchraydi. Bu davrda bolada nutq jarayoni juda shiddat bilan shakllanadi. Hozirgi davrda duduqlanish belgilari bir biriga bogliq bo'lgan 2 ta guruhga ya'ni fiziologik va psixik guruhga ajratiladi.

Fiziologik belgilarga: nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolarining tortishishi, markaziy nerv sistema va jismoniy salomatlikning bo'shligi, zaifligi, umumiy gavda va nutq harakatlarining buzilishi kiradi.

Psixik belgilarga: nutqda tutilish, his xayajon buzilishi, logofobiyalar, hayajonlanish, vohima, alamzadalik, umumiy zo'riqish, uyquda cho'chib ketish, yuzaki uyqu yuz beradi. Nutq xosil bo'lishida muskul tortishishi duduqlanishning tashqi belgisi hisoblanadi. Aslida muskul tortishishi 3 xil bo'ladi: klonik, tonik va aralash. Klonik muskul tortishish vaqtida tovush, bo'g'in yoki so'z bir necha marotaba takrorlanadi (a-a-asal, qa-qa-qa-qalam, tosh-tosh-tosh) Tonik muskul tortishish vaqtida esa so'z boshida to'xtalish ro'y beradi va tutilib gapiruvchi bir tovushdan, bo'g'indan va so'zdan 2chi tovushga, bo'g'inga va so'zga o'tolmaydi, uzoq to'xtalib qoladi (...a....sal, q....alam, ....t....osh). Uchinchi turi aralash klonotonik yoki tonoklonik muskul tortishishi kuzatiladi. Tortishish nutqning u yoki bu organlari: nafas olish, ovoz paychalarini yoki artikulyatsion apparatda ro'y beradi. Nafas olish buzilishi bilan bogliq duduqlanish 3 ta shaklga ajraladi: ekspirator, insperator va resperator.

- Ekspirator shakli (nafas chiqarish jarayonida tortishish);
- Insperator shakli (nafas olish jarayonida tortishish, ba'zida xirillash bilan);
- Resperator shakli (nafas olish va nafas chiqarish vaqtida so'zlarning bo'linishi bilan).

Ovoz paychalaridagi tortishishning bolalarga xos belgisi: sukut saqlash; shivirlash; unlilarni cho'zib talaffuz qilishi. Artikulyatsion apparatdagi tortishish o'rni ( lab, til, yumshoq tanglay ). Ular ko'pincha portlovchi undosh tovushlar ( k,q,p,b,t,d,g,g' ) ni talaffuz qilishda yaqqol seziladi. Tovushning fonetik xususiyati, grammatik qurilishning xususiyati, grammatik qurilishning buzilishi ham tortishishga sabab bo'ladi. Tortishishga kayfiyat, atrofdagi muhitning ham ta'siri katta. Bola o'ziga tanish bo'lgan she'rni aytishda, tanigan odamlari orasida kamroq tutiladi. Duduqlanadigan bolalarning hayajonli nutqida fonetik - fonematik va leksik grammatik buzilishlar ko'zga tashlanadi. Chunonchi, duduqlanadigan bolalardagi fonetik-fonematik buzilishlar 66,7%ni tashkil qiladi, 34%ni lug'at boyligi kam, grammatik tuzilishi shakllanmagan bolalar tashkil etadi. Nutq asoslanmagan pauzalar, qaytariqlar bilan uzilib - uzilib chiqadi, jarangdorlik, talaffuz sur'ati, tovush balandligi duduqlanuvchining emotsional holati bilan bog'liqligi tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatib o'tilgan, shuningdek, o'z nuqsoniga bo'lgan e'tibori nuqsonni kuchaytirishda omil bo'lishini qayd qilishgan. Nutqida bolalarda zaiflik, qo'rqqoqlik, tortinchoqlik, ta'sirchanlik va shu



kabilar vujudga keladi. Bola o'sadigan va tarbiyalanadigan ijtimoiy muhitning yaxshi va yomonligiga bog'liq holda ruhiy ko'rinishlar turli darajalarda bo'lishi, shaxsning ruhiy holatiga o'tishi, mustahkamlanishi mumkin. Nutqdagi qiyinchiliklarni niqoblashga bo'lgan urinishlar duduqlanadigan kishilarda turli xil hiylalar ( qo'l, oyoq , tana , bosh bilan harakat qilish , til uchi , pastki labni tishlash , chapillatish , tovushlarni ovoz chiqarmay artikulyatsiyalash )ni qo'llash bilan namoyon bo'ladi.

Duduqlanishning kechish og'ir yengilligiga qarab 3 darajaga bo'linadi:

- Yengil daraja tez gapirishda, asabiy xolatda duduqlanadi, tezda o'tib ketadi;
- O'rta daraja tinch, vazmin xolatda ham duduqlanadi, his hayajonli vaqtda kuchli duduqlanadi;
- Og'ir daraja butun nutqi davomida duduqlanadi.

Bolalarda uchraydigan duduqlanish belgilari, ularning kechishi - bu nutq nuqsonini keltirib chiqaruvchi sabablarga bog'liqdir. Tadqiqotlarda duduqlanish markaziy nerv sistemaning jarohatlanishi natijasida kelib chiqadigan nevroz holatidir degan fikrlar ilgari surilgan. Tibbiyot sohasida duduqlanishni logonevroz atamasi bilan ifodalanadi. Hozirgi vaqtda duduqlanish sabablarni 2 guruhga: moyillik sabab (negizga) va keltirib chiqaruvchi sabab (turtkiga) ajratish mumkin . Moyillik sabablariga quyidagilar kiradi:

- Ota – onalarning nevropatik kasallanishi;
- Duduqlanuvchining o'zidagi nevropatik xususiyatlar (tunggi qo'rquv, enurez, kuchli qo'zgaluvchanlik, xis hayajonli zo'riqish);
- Konstitusional moyillik (oliy nerv faoliyagining juda ham nozikligi, vegetativ nerv sistemasining juda ham nozikligi);
- Nasliy buzilish (nutq apparatining tug'ma zaifligi); Bosh miyaning ona qornida va tug'ilish vaqtidagi jarohatlanishi, asfiksiya, yuqumli kasalliklar hamda boshqa jarohatli buzilishlar. Ushbu ko'rsatilgan sabablar bolaning jismoniy va ruhiy tomondan rivojlanishida turli xil nuqsonlarni keltirib chiqarishga, nutq rivojlanishining zaiflashuviga va duduqlanishni kelib chiqishiga imkon beradi. Duduqlanishni keltirib chiqaruvchi sabablarga:

- Anatomik fiziologik sabablar (ensefalit, miyaning chayqalishi, zaharlanish, qizamiq, ko'kyo'tal, nutq apparatining to'liq rivojlanmaganligi);
- Ruhiy va ijtimoiy sabablar, birlahzalik ruhiy shikast (qo'rquv, vahimaga tushish), noto'g'ri tarbiya (tantiqlik, qattiqqo'llik, tez gapirish, ota onalarning notekis nutqi, kichik yoshli bolalarni haddan ortiq nutq materiallari bilan zo'riqtirish).

Mashg'ulotlar maktabgacha yoshidagi duduqlanuvchi bolalar ta'limining asosiy shakli hisoblanadi. Mashg'ulotlarda bolalar yangi bilim va ko'nikmalarni oladilar, shu bilan birga umumiy va nutqiy hatti-harakat malakalarini o'zlashtiradilar va duduqlanishdan holi mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini egallaydilar. Duduqlanuvchi bolalarda og'zaki ko'rsatmalar va namoyish yoki namunaning namoyishsiz birgina og'zaki ko'rsatmalarga mos ravishda o'quv faoliyatini bajarish qobiliyati shakllanadi, idrok, xotira, tafakkur, bilishga bo'lgan qiziqishlari rivojlanadi va boshqaruv jarayonlari shakllanadi Bolalar aniq va umumiy savollarga javob berishga o'rganadilar; logoped, tarbiyachining talabiga ko'ra qisqa va keng



javob qaytarishni mashq qiladilar; normal tempda, atrofdagilar uchun tushunarli, yetarlicha baland, aniq, ma'noga mos ravishda javob beradilar. Mashg'ulotlarda ot, sifat va tilning boshqa bo'laklarining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash malakalari mustahkamlanadi. Diqqatning jamlanganligi, fahmlilik, eslash, dialog vaqtida faol ishtirok etish, lozim bo'lganda esa impulsiv bayondan o'zini tiyish kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar mashg'ulotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. O'rtoqlaridan ilgari ketmay va ulardan ortda qolmay ishni bir vaqtda boshlash va yakunlash ko'nikmasi shakllanadi, faoliyatning normal tempi, harakatchanlik, kelishib, ketma-ketlikda ishlash odati, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, faoliyatning ikki turi o'rtasida diqqatni taqsimlay olish, materialni (qog'ozni) ratsional sarflash, qo'llanmalar, qurollardan to'g'ri foydalanish shakllantiriladi.

Ijobiy shaxsiy sifatlarni va umumiy va nutqiy hatti-harakat malakalarini shakllantirish, shuningdek mustaqil nutqdan foydalanish malakalarini mustahkamlashga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek nafaqat jamoada, balki yakka tarzda o'ynash ko'nikmasini rivojlantirishga, o'yin qoidalariga mos ravishda o'z istaklarini bo'ysindirish yoki chegaralashga, iroda sifatlarini tarbiyalashga: o'z-o'zini nazorat etish, o'z hatti-harakatlariga javobgarlik, diqqatni jamlash, o'yinda faol bo'lish va bir vaqtning o'zida lozim bo'lsa, o'z hissiyotlari va hoxishlarini tiya bilishga katta e'tibor beriladi.

Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan ishlarning umumiy vazifalari bilan bir qatorda rejim momentlarini ularning umumiy va nutqiy hatti-harakatlari singari nutqiy faoliyatni korreksiyalashda ham qo'llash lozim. Kun tartibida dududlanishsiz to'g'ri nutqiy muloqotni tashkil etish uchun qator qulay fursatlar bo'lib, ular xususida bolalar bilan suhbatni tashkil etish mumkin. Bunda bolalarni muloqot vaqtida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bolalar birbirlarini yaxshi ko'rishlari uchun ularni to'g'ri o'tkazish maqsadga muvofik (doira, yarim doira). Bolalar suhbat davomida ishtirok etishlari uchun barcha momentlarni aniq tashkil etish lozim: yuvinish, kiyinish, yechinish, navbatchilik, ekskursiya, kuzatish va b. Bolalarni barcha harakatlarni ortiqcha shovqinsiz bajarish, kattalar nutqini va o'rtoqlarining javoblarini tinglash, savol berilganda javob qaytarish va o'rtoqlarini gapini bo'lmaslikka o'rgatish lozim

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayupova.M.Y. —Logopediya|| O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatlashriyoti Toshkent - 2007
2. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi|| Ma'ruza matni .T-2001
3. Axmedova Z.M, Ayupova M.YU, Nurkeldiyeva D.A.«Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar», Toshkent «Yangi asr avlodi» 2007
4. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniye|| xrestomatiya —Eksmo-Press||, 2001 L.I. Belyakova, Lubenskaya A.I. Priyom uchao'yeniya straxa rechi u detey, stradayu o'ix zaikaniyem J. Defektologiya, 1985.
5. Volkova L.S., Shaxovskaya S.N. Logopediya, —Vlados||. 2004.